

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligining birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarning
2025 — 2027-yillar uchun budget mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlar ijrosi bo'yicha**

MA'LUMOT

T/r	Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2025-yil Prognoz	9 oylik ijrosi	Yillikka nisbatan (foizda)
1	13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	mlrd. so'm	12,1	8,2	67,7 %
	Strategik maqsad: davlat ishtirokidagi korxonalarni hamda davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda davlat ulushi mavjud xo'jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish.				
Yakuniy natija ko'rsatkichi					
2	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko'chmas mulki obyektlari soni	dona	650	1104	169,8 %
3	Zamonaviy korporativ boshqaruv shakli va usullari joriy qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar soni (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESD) tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv qoidalari, komplayens xizmati, korporativ boshqaruv tizimini baholash)	dona	20	16	80%
4	Davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan noturar bino va inshootlarni, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini ijaraga berish	ming kv.m	3 800	5 892	155,1 %
5	Davlat aktivlarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag'larni davlat budgetiga o'tkazish (korxonalar, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar, yer uchastkalariga bo'lgan huquq va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni)	trln. so'm	10,1	5,6	55,4%
Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi					
6	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) soni	dona	50	60	120%
7	Savdoga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlari soni	dona	600	1044	174%

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan
Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning
2025 — 2027-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish
bilan bog'liq maqsadli indikatorlarining 2025-yil 9 oylik ijrosi yuzasidan
HISOBOT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 455-son qarori bilan Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2025–2027-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlar tasdiqlangan.

Unda **Strategik maqsad** sifatida Davlat ishtirokidagi korxonalarni hamda davlat ko'chmas mulki obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali Davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda Davlat ulushi mavjud xo'jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Mazkur maqsadlar uchun yakuniy ko'rsatkich sifatida 2025-yilda Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko'chmas mulki obyektlari sonini **650 ta**ga yetkazish, shundan bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi tariqasida 2025-yil uchun:

a) savdoga chiqariladigan **davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari)** soni **50 dona**;

b) Savdoga chiqariladigan **davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlari** soni **600 dona** nazarda tutilgan.

Yuqorida qayd etilgan qaror va belgilangan Indikatorlar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida Davlat aktivlari agentligining **2025-yil 4-yanvardagi 12-son buyrug'i** tasdiqlanib, ijrosi Davlat aktivlari agentligining tarkibiy bo'linma rahbarlarining shaxsiy nazoratiga olingan.

Indikatorlarning baholash har chorak yakuni bo'yicha **Ichki audit xizmati** tomonidan amalga oshirilmoqda va natijalari bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritib borilmoqda.

Belgilangan maqsadli indikatorlarning barchasi so'zsiz ijrosi ta'minlanmoqda. Xususan:

a) Savdolarqa chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) sonini 50 ta, savdolarqa chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlari soni 600 taga yetkazish bo'yicha:

2025-yil 1-oktabr holatiga Davlat aktivlari agentligi tomonidan **60 ta** davlat ishtirokidagi korxonalaridagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) hamda **1 044 ta** davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlari savdolarqa chiqarilgan.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF–70-son Farmoniga asosan **659 ta** davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlari hamda **113 ta** aksiya paketlari (ulushlari) ommaviy savdolar orqali sotilishi belgilangan.

Mazkur Farmon 2024-yil uchun maqsadli indikatorlar tasdiqlangandan so'ng qabul qilingan bo'lib, xususiylashtiriladigan davlat ko'chmas mulk obyektlari va aksiya paketlari (ulushlari) soni indikator ko'rsatkichining rejaga nisbatan ortig'i bilan bajarilishiga turtki bo'ldi.

b) Zamonaviy korporativ boshqaruv shakli va usullari joriy qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar sonini (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv qoidalari, komplayens xizmati, korporativ boshqaruv tizimini baholash) 20 taga yetkazish bo'yicha:

Zamonaviy korporativ boshqaruv shakli va usullari joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat aktivlarini boshqarish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 3-bandiga muvofiq, barcha davlat ishtirokidagi korxonalar uchun yangilangan **Korporativ boshqaruv qoidalari** ishlab chiqish bo'yicha, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-son buyrug'i bilan davlat ishtirokidagi korxonalar uchun **korporativ boshqaruv qoidalari (yangi tahrirda), axloq kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati, qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati** kabi qoidalar ishlab chiqilgan.

Hozirda, **davlat ishtirokidagi korxonalari**dan **15 tasida** ("Tashgiprogor" AJ, "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ, "Yuggazstroy" AJ, "Kvars" AJ, "Olot neft va gaz qidiruv ekspeditsiyasi" MChJ, "AS-Andijon-Servis" MChJ, "DVSIM" MChJ, "Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi" MChJ, "Raqamlashtirish va sertifikatlash" MChJ, "Markazi Sport gazetasi tahririyati" MChJ, "Innovatsiya va sanoat integratsiyasi markazi" MChJ, "YAGONA BOSHQARUV KOMPANIYASI" MChJ, "Tamshush suv inshootlaridan foydalanish direksiyasi" MChJ, "JANUBGAZYO'LQURUVCHI" MChJ, "JANUBGAZ BUTLASH VA QURILISH QURILMALARI" MChJ) korporativ boshqaruv qoidalariga (yangi tahrirda) rioya etish majburiyati yo'lga qo'yilgan.

1 tasida ("O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi" AJ) Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga muvofiqligini baholash natijalari bo'yicha xulosa tasdiqlangan hamda Korporativ boshqaruv qoidalarining davlat ishtirokidagi tavsiyalariga rioya etilishini monitoring qilish to'g'risidagi hisoboti tasdiqlangan.

d) Davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan noturar bino va inshootlarni, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini ijaraga berishda 3,8 mln kv.m ga yetkazish bo'yicha:

2025-yil 1-oktabr holatiga respublika bo'yicha **5 892 ming kv. m.** davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan noturar bino va inshootlar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari **ijaraga berilgan.**

e) Davlat aktivlarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lardan 10,1 trln so'm pul mablag'larini respublika budjetiga o'tkazish (korxonalar, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar, yer uchastkalariga bo'lgan huquq va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni) bo'yicha:

2025-yil 1-oktabr holatiga davlat aktivlarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lardan O'zbekiston Respublikasi **davlat budjetiga 5,6 trln so'm** o'tkazilgan.

f) Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga budjetdan ajratilgan 12,1 mlrd so'mlik mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi bo'yicha:

2025-yil 1-oktabr holatiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi ta'minlanishi uchun **8,2 mlrd so'mlik** mablag'lar sarflandi.